

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI	10-16
<i>Atamuratova Dilafroz</i> TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI	17-22
<i>Abdushukurova Iqbol</i> TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI	23-27
<i>Redjapov Doniyor</i> JANUBIY OROLBO'YI AHOLISI HARBIY SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA	28-31
<i>Sultanov Samandar</i> QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI JARAYONLARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	32-35
<i>Matyakubov G'ayrat</i> XORAZM VOHASIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR).....	36-39
<i>Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA)	40-45
<i>G'aniyev Mirjalol</i> QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIIY HAYOT	46-51

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullaev Altinbek</i> KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH LOYIHASI BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52-66
<i>Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira</i> INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	67-71
<i>Rustamova Sayyora</i> STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI	72-77
<i>Буранова Лола, Арипова Азиза</i> РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ	78-87
<i>Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich</i> KORXONALAR BOSHQARUVIDA "YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYLLARINI QO'LLASH AHAMIYATI	88-94

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Saidov Hakim G'afurovich</i> TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA	95-98
<i>Kadirova Ziyoda</i> ILMIY IJODNING IJTIMOIIY, MADANIY VA TARIXIY O'LCHAMLARI	99-104

<i>Muzaffarov Navruzxon Baxronovich</i> SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI	105-108
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI	109-113
<i>Karimova Lola Muzafarovna</i> IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI	114-119
<i>Jumayeva Shahlo Suyunovna</i> JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK MASALALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	120-125
<i>Djurayev G'olib</i> JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA ERKINLIK MASALASI	126-130
<i>Rajabov O'tkirjon</i> KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA "TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI	131-134
<i>Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi</i> GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI	135-139
<i>Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza</i> MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI	140-144
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Abduganiyeva Djamila Rustamovna</i> MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS	145-151
<i>Murtazayeva Xadicha</i> INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	152-155
<i>Несунбаева Саодатхан</i> ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА"	156-160
<i>Axmedjanova Farida, Toirova Shohida</i> XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI	161-165
<i>O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi</i> TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI	166-170
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Salaev Nodirbek</i> PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI	171-178
<i>Турсунов Ойбек Батирович</i> МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	179-184
<i>Xakimova Inobatxon</i> XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	185-191

<i>Мардонов Амиржон Шерзод угли</i> ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА	192-202
<i>Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTIONAL MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	203-207
<i>Xolmo'minov Shavkat Jumaevich</i> EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA'MINLASH SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	208-215
<i>Khudayberganova Nigina To'liq qizi</i> THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS IN INTERNATIONAL LAW	216-221
<i>Саидов Бобур Бахромжонович</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ ...	222-229
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL TAJIRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI	230-236
<i>Qilichova Kamola Luqmonxon qizi</i> DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK TARKIB BELGILARI	237-248
<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI: HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI	249-256
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Imomov Sirojiddin Ilxomovich</i> SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA'MINOTINING AHAMIYATI	257-263
<i>Khayrova Madina Rasimovna</i> NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI	264-269
<i>Mirkasimova Zilola Alisherovna</i> MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI	270-273
<i>Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i> AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O'ZARO TA'SIRI	274-278
<i>Shakirova Dildora Abdumalikovna</i> NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH	279-285
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> TABIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO'LLANILISHI	286-290

Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon

MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY 291-294

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

THE INTERACTION BETWEEN MORAL DEVELOPMENT AND NEUROPEDAGOGICAL METHODS

Khudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Associate Professor, Department of Primary Education

E-mail: sahlohudokulova@gmail.com

Abstract. This article explores the relationship between the moral development of future teachers and the application of neuropedagogical methods. The research focuses on identifying the impact of neuropedagogical approaches on fostering moral concepts among youth. The importance of cognitive development in the process of moral decision-making is analyzed. Findings indicate that integrating innovative approaches into the educational process not only improves teaching quality but also increases students' motivation to actively participate in the learning process. The article also identifies neuropedagogical methods that are applied in practice.

Keywords: moral development, neuropedagogical, cognitive development, moral decision, social responsibility, moral principles, personal duty.

AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O'ZARO TA'SIRI

Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna

O'zbekiston -Finlyandiya pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy rivojlanish va neyropedagogik usullarning o'zaro munosabati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot neyropedagogik usullar orqali yoshlarda axloqiy tushunchalarni rivojlantirishga ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Kognitiv rivojlanishning axloqiy qaror qabul qilish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarning integratsiyasi nafaqat o'qitish sifatini yaxshilashga, balki talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Maqolada amaliyotda qo'llaniladigan neyropedagogik usullar aniqlangan.

Kalit so'zlar: axloqiy rivojlanish, neyropedagogik, kognitiv rivojlanish, axloqiy qaror, ijtimoiy javobgarlik, axloqiy prinsiplar, shaxsiy burch.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N42>

Kirish. Axloqiy rivojlanish shaxsning ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarga munosabatini, uning axloqiy mezonlarga sodiq qolishini shakllantiradi. Bu jarayonda insonda adolat, hurmat, mas'uliyat, mehr-shafqat kabi tamoyillar mustahkamlanadi. Axloqiy rivojlanish orqali shaxs turli axloqiy prinsiplarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham o'zlashtiradi, bu esa uning turli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutish qobiliyatini rivojlantiradi. Axloqiy rivojlanish jamiyatning umumiy axloqiy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga hissa qo'shadi, chunki har bir shaxs o'zi qabul qilgan axloqiy qoidalar orqali jamiyatdagi munosib o'rnini topadi va ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili Psixolog Lourens Kolberg axloqiy rivojlanishni shaxsning ijtimoiy ongi rivojlanishi jarayoni sifatida ta'riflaydi. Uning ta'kidlashicha, "Axloqiy rivojlanishning asosi — shaxsning ma'lum bir qadriyatlarga sodiq qolishi va o'zini jamiyat oldida mas'uliyatli shaxs sifatida his qilishida namoyon bo'ladi".[1] Kolbergning bu fikriga ko'ra, axloqiy rivojlanish shaxsning turli ijtimoiy vazifalarga yondashuvini, uning munosabatini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi.

Shaxs rivojlanishida axloqiy rivojlanishning o'rni juda muhim, chunki u jamiyatdagi barqarorlik va birdamlikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Axloqiy rivojlanish orqali shaxs o'zining ijtimoiy javobgarligini, shaxsiy burch va majburiyatlarini his qiladi, bu esa uning ijtimoiy munosabatlarda mustahkam va ishonchli inson bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Axloqiy rivojlanish jarayonida inson axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zining shaxsiy hayotiga tatbiq etish orqali ijtimoiy munosabatlarda o'ziga xos axloqiy tamoyillarni saqlab qoladi. Bu jarayon axloqiy tarbiyaning ta'lim va tarbiya jarayonidagi asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u yoshlarni ma'naviy yetuklikka yetkazadi va shaxsning barkamol rivojlanishini ta'minlaydi.

Axloqiy rivojlanish jarayonida yoshlarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Axloqiy rivojlanish jarayonida har bir yoshning shaxsiy xususiyatlari, ya'ni individual kognitiv va emotsional rivojlanish darajasi, ijtimoiy muhitdagi o'rni va tajribalari alohida o'rin tutadi. Yoshlar har xil ruhiy, kognitiv va hissiy xususiyatlarga ega bo'lgani sababli, ularning axloqiy qarashlarni qabul qilishi va ularga sodiq qolishi o'ziga xos tarzda kechadi. Har bir shaxsning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularga yondashish axloqiy rivojlanishni yanada samarali qiladi va yoshlarning jamiyatda mas'uliyatli shaxslar bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Jan Piaje bolalarning axloqiy tushunchalarini shakllantirish uning kognitiv rivojlanish bosqichlariga bog'liq deb ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, "Axloqiy rivojlanish jarayonida bolalar turli davrlarda turlicha yondashuvga ega bo'ladi, chunki ularning fikrlash va tushunish qobiliyatlari bosqichma-bosqich rivojlanadi".[2] Piaje yoshlar axloqiy tushunchalarni nafaqat bilish, balki ularni ongli ravishda qabul qilish jarayonida katta individual xususiyatlarga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Buning natijasida, yoshlar axloqiy normalarni har bir shaxsiy holatga tatbiq etish orqali mustaqil axloqiy qarashlarni shakllantiradilar.

Muhokama va natijalar. Axloqiy rivojlanishda yoshlarning kognitiv darajasi ularning axloqiy tushunchalarni qanday qabul qilishini belgilaydi. Misol uchun, analiz qilish, faktlarni tahlil qilish va to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyati yuqori bo'lgan yoshlar axloqiy tushunchalarni tushunishda chuqurroq yondashuvga ega bo'ladilar. Bu kabi kognitiv xususiyatlar ularga har bir vaziyatni to'g'ri baholash, axloqiy tamoyillarni anglab yetish va ijtimoiy munosabatlarda ularni tatbiq etish imkonini beradi. Emotsional jihatdan yuqori barqarorlikka ega yoshlar esa his-tuyg'ularini boshqarish va boshqalarga empatiya bilan yondashishda kuchli bo'ladilar, bu esa ularning axloqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, emotsional barqarorlik yoshlarga turli ijtimoiy munosabatlarda hurmat, mehr-muhabbat va adolatni namoyon etishga yordam beradi.

Ijtimoiy munosabatlarda yoshlarning shaxsiy tajribalari ham muhim o'rin tutadi, chunki ular orqali yoshlar axloqiy tushunchalarni hayotda qanday qo'llashni o'rganadilar. Har bir yoshning hayotiy tajribasi, oilaviy muhiti, o'quv muassasalari va do'stlar davrasi kabi omillar axloqiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida har bir shaxsning o'z xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashgan yondashuv qo'llanilishi lozim. Axloqiy tarbiya

jarayonida individual yondashuv yoshlarga o'z qadriyatlarini shakllantirish va ularga amal qilishda ko'mak beradi.

Neyropedagogik usullar orqali yoshlarda axloqiy tushunchalarni rivojlantirish imkoniyatlari. Neyropedagogik usullar yoshlarning kognitiv va emotsional rivojlanishini hisobga olgan holda, ularda axloqiy tushunchalarni chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Neyropedagogikaning asosiy vazifalaridan biri yoshlarning neyrofiziologik xususiyatlariga moslashgan holda ularni ta'lim jarayoniga jalb qilishdir. Bu yoshlarning miyasidagi kognitiv jarayonlarni faollashtirish orqali axloqiy tushunchalarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, **vizualizatsiya, rolli o'yinlar, virtual reallik va simulyatsiya** kabi neyropedagogik usullar yoshlarda axloqiy prinsiplarni hissiy va intellektual jihatdan chuqur tushunib yetishga imkon beradi. Bunday usullar yoshlarga axloqiy tushunchalarni nafaqat bilish, balki ularni voqea va hodisalar bilan bog'liq holda qabul qilish imkonini yaratadi. "Neyropedagogik usullar yoshlarning intellektual va emotsional rivojlanishini hisobga olish orqali ta'lim jarayonida ularning axloqiy tushunchalarni chuqurroq o'zlashtirishini ta'minlaydi. Masalan, turli simulyatsiya va rolli o'yinlar yoshlar ongida axloqiy tamoyillarni shakllantirishda hamda ularni hayotga tatbiq etishda ta'sirchan vositalardir".[3]

D.Levitinning ushbu fikrlari neyropedagogik usullarning yoshlarning axloqiy rivojlanishidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Levitinning fikricha, simulyatsiya va rolli o'yinlar kabi usullar yoshlar ongida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda samarali vosita bo'lib, ular axloqiy tushunchalarni amaliy holatlarda anglash va qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday yondashuvlar yoshlarga axloqiy masalalarga chuqurroq munosabatda bo'lishga yordam beradi, bu esa neyropedagogik usullarning axloqiy rivojlanishga bo'lgan ta'sirini yanada yorqinroq ko'rsatadi.

Vaziyatli mashg'ulotlar yordamida yoshlar turli axloqiy muammolar bilan to'qnashib, ularni amalda qanday hal qilish mumkinligini o'rganadilar. Bunda ular har bir qarorning natijasiga e'tibor qaratgan holda, axloqiy me'yorlarni tushunib, ularga sodiq qolish qobiliyatini rivojlantiradilar. Neyropedagogik yondashuv yoshlarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularga yechim topish jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu jarayon yoshlarni axloqiy masalalarga nisbatan chuqurroq va ongli yondashishga yo'naltiradi, bu esa axloqiy tushunchalarning ularda mustahkam shakllanishiga yordam beradi.

Neyropedagogik usullar yoshlar ongida axloqiy tamoyillarni shakllantirish jarayonida muhim o'rin tutadi. Neyropedagogika yoshlarning emotsional rivojlanishini hisobga olgan holda, ularning axloqiy tushunchalarga bo'lgan munosabatini mustaqil ravishda shakllantirishga yordam beradi. Miyaning emotsional va kognitiv funksiyalarini rag'batlantirish orqali yoshlar turli axloqiy tamoyillarni anglab, turli vaziyatlarda ularni to'g'ri qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Neyropedagogika yoshlarning ongida axloqiy qadriyatlarni uyg'otish va ularning turli ijtimoiy munosabatlarda bu qadriyatlarga mos yo'l tutishlarini rag'batlantiradi.

His-tuyg'ular orqali axloqiy tamoyillarni shakllantirish yoshlarning shaxsiy tajribalari asosida shakllanadigan, turli axloqiy qarorlarni tanlash jarayonida qo'l keladigan metoddir. Masalan, yoshlar murakkab vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini boshqarish va qarorlarning ijobiy yoki salbiy oqibatlarini to'g'ri baholash orqali axloqiy qarashlarni rivojlantiradilar. Neyropedagogik usullar orqali yoshlar axloqiy tamoyillarni tanqidiy va ijodiy fikrlash orqali

chuqurroq tushunish imkoniga ega bo'ladilar, bu esa ularning axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonida yordam beradi. "His-tuyg'ular yoshlarda axloqiy qarashlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi, chunki yoshlar o'z his-tuyg'ulari orqali axloqiy tamoyillarni tushunib yetadilar va ularni kundalik hayotda qo'llay oladilar".[4]

Ushbu fikrlar yoshlarda his-tuyg'ular orqali axloqiy tushunchalarni chuqur o'zlashtirishning ahamiyatini tasdiqlaydi. Goulmanning ta'kidlashicha, his-tuyg'ular insonning axloqiy tushunchalarni anglash va amalga oshirishida katta rol o'ynaydi, chunki yoshlar shaxsiy tajribalari orqali ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni chuqurroq tushuna oladilar.[5]

Neyropedagogik yondashuvlarning yoshlar ongida axloqiy tamoyillarni shakllantirishdagi ahamiyati shundaki, u yoshlarning shaxsiy dunyoqarashiga ta'sir etib, ularni barkamol shaxs bo'lib rivojlanishlariga yordam beradi. Axloqiy rivojlanish jarayonida neyropedagogika yoshlarda faqat ma'lumot va tushunchalarni bilish emas, balki ularni ongli va mas'uliyatli tarzda hayotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, neyropedagogik usullar yoshlarning axloqiy ongini rivojlantirishda, ularda mustahkam axloqiy qarashlar va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Kognitiv rivojlanishning axloqiy qaror qabul qilish jarayonidagi ahamiyati.

Kognitiv rivojlanish yoshlarda axloqiy qarashlarni chuqurroq anglash, tahlil qilish va qabul qilingan qarorlarning ijtimoiy oqibatlarini baholash qobiliyatini shakllantiradi. Bu rivojlanish yoshlar uchun nafaqat axloqiy tushunchalarni bilish, balki ularni hayotda to'g'ri qo'llash imkoniyatini yaratadi. Kognitiv rivojlanish axloqiy qarorlarni mustaqil qabul qilish jarayonida yoshlarni tanqidiy va ijodiy fikrlashga undaydi. Tanqidiy fikrlash yoshlar uchun turli axloqiy holatlarda to'g'ri va noto'g'ri aniqlab, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish imkonini yaratadi. Zero, "Tanqidiy fikrlash yoshlarga nafaqat axloqiy tushunchalarni tushunib yetish, balki ularni hayotda amalda qo'llash ko'nikmasini rivojlantirishda muhim asos hisoblanadi".[6]

Emotsional rivojlanish yoshlarda empatiya, hurmat, his-tuyg'ularni anglash va ularni boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bu rivojlanish yoshlarga axloqiy qarashlarni his-tuyg'ular orqali chuqurroq tushunish imkonini yaratadi. K.Rodgers ta'kidlaganidek, "Insonning o'z his-tuyg'ularini anglash va ularni boshqarish qobiliyati uning ichki barqarorligi va axloqiy yetukligini ta'minlaydi. Empatiya, hurmat va emotsional barqarorlik shaxsning boshqalarga nisbatan munosabatlarida adolatli va insonparvar bo'lishga yordam beradi".[7]

Emotsional rivojlanish yoshlarning ijtimoiy munosabatlarda mas'uliyatli va adolatli xulq-atvorini shakllantiradi, ularni o'z his-tuyg'ulari asosida to'g'ri yo'nalishlarda qaror qabul qilishga yo'naltiradi.

Amaliyotda qo'llaniladigan neyropedagogik usullar.

Rolli o'yinlar, vaziyatli mashg'ulotlar, aks ettirish va muhokama qilish usullari.

Neyropedagogik texnologiyalar yoshlarga axloqiy tushunchalarni na faqat nazariy jihatdan, balki amalda o'zlashtirish imkonini beradi. Rolli o'yinlar yoshlarni axloqiy qarorlarni qabul qilishda shaxsiy tajribalarni his qilish orqali chuqurroq tushunib yetishga yo'naltiradi. Bunday mashg'ulotlar ularga turli axloqiy vaziyatlarda boshqalarning nuqtai nazarini tushunish, empatiyani rivojlantirish va ijtimoiy munosabatlarda o'zini xolis tutish ko'nikmalarini shakllantiradi. Psixolog Devid Kolbning ta'kidlashicha, "tajriba orqali o'qish insonni turli nuqtai nazarlarni tushunishga va ularni amalda qo'llashga yo'naltiradi".[8]

Xulosa. Tadqiqot asosida axloqiy rivojlanish va neyropedagogik usullarning o'zaro ta'siri to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Neyropedagogik texnologiyalar yoshlarda axloqiy qadriyatlarni chuqurroq shakllantirish va ularni kundalik hayotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar orqali yoshlar axloqiy tushunchalarni yodda saqlash bilan cheklanmay, turli vaziyatlarda ularni amalda qo'llashni o'rganadilar. Neyropedagogik yondashuvlar yoshlarning axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni jamiyatda foydali va mas'uliyatli shaxslar bo'lib yetishishlariga yordam beradi.

Axloqiy qarashlarni shakllantirish jarayonida kognitiv va emotsional rivojlanish bir-birini to'ldiruvchi muhim jihatlar sifatida namoyon bo'ladi. Kognitiv rivojlanish tanqidiy fikrlash va muammolarni tahlil qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirsa, emotsional rivojlanish yoshlarda empatiya, hurmat, adolat kabi axloqiy tuyg'ularni rivojlantiradi. Neyropedagogik usullar yoshlar uchun axloqiy tamoyillarni intellektual va hissiy jihatdan tushunish imkoniyatini yaratib, ularning axloqiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullayev A. Axloqiy rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyat // Huquq va burch. 2019, №3. 52-bet.
2. Abdurahimov Z. *Axloqiy tarbiyaning pedagogik asoslari*. -Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019. – S. 87.
3. Kohlberg L. *The Philosophy of Moral Development*. -San Francisco: Harper & Row, 1996, p. 72.
4. G'oziyev E.G'. *Tafakkur psixologiyasi*. -T.: O'qituvchi. 1990 y. 59 b.
5. Golembo A. *Psixologiya i neyropedagogika: integrativnyy podxod*. -Moskva: Nauka, 2020. – S. 154.
6. Kolberg L. *The Psychology of Moral Development*.,-New York: Harper & Row, 1984. – p. 88.
7. Kohlberg. *Moral Development and Ethical Behavior*. 1996, p. 89.
8. Levitin D. *Neuroscience and the Classroom: Making Connections*. -New York: Midas, 2016. – p. 198

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).